



UDK:614

SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI ISLOHOTLARI STRATEGIYASINING ISHLAB CHIQUILISHI VA UNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Azimova Maftuna Muhammadaminovna

Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

maftunaazimova67@gmail.com + 998-88-811-67-57

Annotatsiya Mustaqil taraqqiyotimiz davrida mamlakatimizda inson xayotini yaxshilash, aholi turmush sharoitlarini yaratish maksadida ulkan ishlar amalga oshirildi. Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish, uning sog‘ligini kafolatlash yunalishida jahon va milliy tajribaga tayanib yagona tizim yaratila boshlandi. Bugungi kunda zamon talabi, aholini ijtimoiy ximoyalash va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish uchun yangicha tamo-yillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etmoqda.

Inson salomatligini yanada mustaxkamlash, sog‘lom insonlar safini kengaytirish, onalar va bolalar sog‘ligini muhofaza qilish, sog‘lom turmush tarzini keng omma o‘rtasida shakllantirish, oilada tibbiy madaniyatni oshirish, xar bir shaxsning salomatligi o‘z qo‘lida ekanini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, sog‘lom jamiyatni tashkil etish borasidagi ishlarni mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab, davlatimiz tomonidan amalga oshirilib kelindi.

Dastlabki davrlardan boshlab mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida qonun xujjatlari qabul qilindi¹. Shuningdek aholi salomatligini tiklash hamda mustahkamlash yo‘lida mustaqillikning dastlabki davrlaridayoq mamlakatda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish zarurati paydo bo‘ldi va ushbu sohada O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Farmoni qabul qilindi.²

O‘zbekistondagi ushbu jarayonlardagi yangicha tamo-yillarni ishlab chiqish hamda mamlakatimizning jahon talablariga javob bera oladigan barcha sohalarni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» PF-4947-son Farmoni qabul qilindi. Harakatlar strategiyasida aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni

¹ 1996 yil 29 avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning sog‘ligini saqlash to‘g‘risida»gi Qonun

² 1998 yil 10 noyabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to‘g‘risida»gi 2107-son Prezident Farmoni

saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi³. Shuningdek 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida Ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish maqsadida Namangan, Farg‘ona, Sirdaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida tibbiyot klasterlarini tashkil etish maqsadlari amalga oshirila boshlandi⁴.

Yuqoridagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, O‘zbekistondagi sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va bu sohani rivojlanishi tarixiga oid bo‘lgan masalalarni o‘rganish, sohadagi o‘zgarishlarni aholi turmush tariziga tasirini ilmiy tahlil etish tibbiyot tarix fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Kalit so‘zlar: Salomatlik, tibbiy xizmat, prezident farmonlari, qonun, normativ hujjatlar, turmush tarzi, sanitariya nazorati, tibbiyot muassasasi, tibbiy xizmat, amaliyotchi shifokor.

KIRISH.

Hozirgi davrda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining turli sohalarida yangi tibbiy xizmat turlarini joriy qilish va tibbiy xizmat ko‘rsatishni turli shakllarini rivojlantirishni moliyaviy ta‘minoti bilan bog‘liq muammolar viloyatlar miqiyosida eng kam o‘rganilgan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini mustaqillik yillaridagi holatini chet el olimlari Zadorjnaya R.A., Berend Rechel., Sebastyan Peruz⁵ va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu olimlarning O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimidagi davlatimiz tomonidan olib borilgan tizimli islohotlar, mustaqillik yillaridan boshlab keng qamrovda amalga oshirilayotgan aholi salomatligi uchun shifokorlar tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar, mamlakat kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yilishi hamda undagi mavjud muammolar, shuningdek O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining MDX tarkibidagi davlatlar orasidagi o‘rni va uning ko‘rsatkichlaridagi farqlar, holatlari o‘rganilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

O‘zbekiston Respublikasidagi sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlari yo‘nalishlarini, shu jumladan, tibbiy xizmat ko‘rsatish sohalarini moliyalashtirishda davlat ishtirokini ayrim ilmiy masalalari Jumanov S., Zaynalov J., Malikov T., Sultonova A., Iskandarova Sh., Srojiddinova Z.⁶ lar tomonidan o‘rganib kelinmoqda.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» PF 4947-son Farmoni.

⁴ 2022 — 2026 -yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.

⁵ Задоржная Р.А. и соавт. – Охрана здоровья населения Узбекистана (обзор). –Москва. 1991. –С. 225; Беренд Р. Системы здравоохранения; время перемен // Европейская обсерватория по системам и политике здравоохранения. Health Systems in Transition, 2007. –С. 210; Себастьян Перуз. Реформа здравоохранения в Узбекистане: Какая роль отведена международному сообществу // Программа по Центральной Азии, IERES, Университет Джорджа Вашингтона. –Америка. 2015.

⁶ Джуманов С.А. Из истории деятельности сельских врачебных пунктов Узбекистана // Молодой ученый. 2015. -№ 8 (88). – С.775-777; Iskandarova Sh.T, Karieva M.T. O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish (talabalar uchun

Ammo, Farg‘ona viloyati tibbiyot sohasini zamon talablari doirasida tiklanishi va rivojlanishini, tizimni rivojlanishi jarayonidagi amalga oshirilgan islohotlar, soha kadrlari bilan ta‘minlanish darajalari, shuningdek moliyaviy ta‘minotining o‘ziga xos jihatlari hali to‘la o‘rganilmagan. Bu esa ushbu masalaga bog‘liq holatlarni dolzarbligidan dalolat beradi va belgilangan ilmiy izlanish mavzusining kun tartibida o‘ta dolzarb muammo sifatida ko‘tarilishiga asos bo‘ldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish yo‘lida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar orasida, tanlab olingan yo‘nalishning siyosiy va huquqiy asoslarini yaratishga oid chora-tadbirlarni alohida ta‘kidlash lozim. O‘zbekiston mustaqil huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish hamda xalqaro huquq subyekti sifatida jahon hamjamiyatiga qo‘shilish yo‘lida izchil harakat qilmoqda.

Mustaqillikka erishgach, mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida tiklanish davri boshlandi. Tibbiyot sohasida ham yangi bosqichga qadam qo‘yildi. Xususan, sog‘liqni saqlash tizimini tubdan yaxshilashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Shu yo‘nalishda birinchi bo‘lib, O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish maqsadida 1992- yilning mart oyida ushbu soha vazirligi hayati yig‘ilishida 1996-1998 -yillarga mo‘ljallangan umumiy dastur ishlab chiqildi hamda tasdiqlandi. 1999-yilning 14-yanvar oyida Vazirlar Mahkamasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimida boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindiki, ushbu hujjatlar mamlakat sog‘liqni saqlash tizimidagi amalga oshiriladigan islohatlarni yo‘llarini belgilab berdi.

1996-yil 26-avgustda “O‘zbekiston fuqarolarining sog‘lig‘ini muhofaza qilish to‘g‘risida” maxsus Davlat qonuni qabul qilindi. Bu qonun davlat uchun muhim bo‘lgan uchta asosiy masalani belgilab berdi:

- 1) fuqarolarning sog‘lig‘ini muhofaza qilishga oid huquqlarni davlat tomonidan kafolatlash;
- 2) sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;
- 3) mamlakatdagi barcha davlat va jamoat tashkilotlarining sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.

Sog‘liqni saqlash haqidagi qonunda fuqarolarning sog‘lig‘ini himoya qilishning asosiy tamoyillari belgilangan. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) sog‘liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya etish;
- 2) aholining barcha qatlamlariga tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini taqdim etish;
- 3) profilaktika tadbirlarining ustuvorligi;

4) sog‘lig‘idan ayrilgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

5) tibbiyot fanlari va amaliyotning uzviyligi. Qonunda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligining tuzilmasi va vakolatlari ham belgilandi. Bundan tashqari, ushbu qonun aholini sanitariya-epidemiologik jihatdan xavfsizlik bilan ta‘minlashni ham o‘z ichiga oladi. Qonunda har bir bemorning sog‘liqni saqlash sohasidagi huquq va imtiyozlari ham qayd etilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan ikkinchi muhim qadam sifatida sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish amalga oshirildi. Bu haqda davlat rahbari maxsus qaror chiqardi. Mazkur qarorga asosan sog‘liqni saqlash tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, olimlar, huquqshunoslar hamda bu ishga aloqador tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini yangilash dasturini ishlab chiqdilar. Ushbu dastur Respublika Sog‘liqni saqlash vazirligining kengashida va O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasida ko‘rib chiqilib, sog‘liqni saqlash tizimini yangilashning asosiy dasturi sifatida tavsiya etilganidan so‘ng, 1998-yil 10-noyabr kuni davlat rahbarining qarori bilan tasdiqlandi. Dasturda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishning quyidagi kontsepsiyasi taklif etildi: bepul tibbiy xizmat ko‘rsatadigan va davlat byudjetidan moliyalashtirilishi kerak bo‘lgan davolash-profilaktika muassasalarining ro‘yxatini tuzish, qishloq shifokorlik punktlarining tarmog‘ini rivojlantirish, yuqori malakali shifokor kadrlar va o‘rta tibbiy xodimlar tayyorlash, shu maqsadda tibbiy bilim yurtlarini kasb-hunar kollejlariga aylantirish.

Dasturda tez tibbiy yordam tizimini yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida bir qancha tibbiy muassasalar (Toshkent shahar tez tibbiy yordam stansiyasi, Respublika va Toshkent viloyati sanitariya aviatsiyasi) asosida Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazini va uning hududiy filiallarini tashkil etish nazarda tutilgan. Qarorga muvofiq, oliy tibbiy o‘quv yurtlari huzurida uch yil o‘qish davomiyligi bilan yuqori malakali tibbiyot hamshiralarini (reanimatologlar, tug‘ruqxona akusherkalari) tayyorlash bo‘linmalarini tashkil etish rejalashtirilgan. Qarorda xalqaro tashkilotlar, xorijiy investorlar, jamg‘armalar va tashkilotlarning mablag‘larini ham sog‘liqni saqlash tizimiga jalb qilish ko‘zda tutilgan.

Mazkur qarorni bajarish bo‘yicha 1999-yil 14-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va uning hududiy tashkilotlarining asosiy vazifalari to‘g‘risida qaror qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Sog‘liqni saqlash vazirligining markaziy apparati va uning boshqaruv tizimlarini tasdiqladi. Vazirlik rahbariyati asosan vazir va uning to‘rt nafar o‘rinbosaridan iborat bo‘ldi. Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasi rahbari o‘z lavozimiga ko‘ra Sog‘liqni saqlash vazirining o‘rinbosari deb belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o‘zining 1999-yil 14-yanvardagi qaroriga ilova sifatida “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi to‘g‘risida Nizom” e‘lon qilindi. Unda Sog‘liqni Saqlash Vazirligining maqomi, vazifalari, vakolatlari va faoliyatining tashkiliy tamoyillari belgilandi. Hujjatda ta‘kidlanishicha, Sog‘liqni Saqlash Vazirligi o‘z ishini

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari va boshqa normativ hujjatlarga muvofiq olib boradi.

Aholi salomatligini himoya qilish, yuqumli kasalliklarning tarqalishining oldini olish, sanitariya-epidemiologik xizmatga bog‘liq. Bu borada sanitariya nazoratini samarali tashkil etish va uni tezkor amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etishi alohida qayd etilgan. 1992-yil 3-iyulda “Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida qonun” qabul qilindi. Unda sanitariya-epidemiologik nazoratning asosiy tamoyillari belgilandi. Xususan, salomatlik uchun qulay ekologik muhit yaratish, radiatsiya xavfsizligini ta‘minlash ustidan nazorat o‘rnatish, tashkilotlar va shaxslar tomonidan sanitariya qoidalarining buzilishi uchun javobgarlikni kuchaytirish choralari qonuniy jihatdan mustahkamlandi. Ushbu qonunda sanitariya-epidemiologik masalalarda xorijiy davlatlar bilan xalqaro kelishuvlar tuzish imkoniyatlari ham nazarda tutilgan.

Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish va uni takomillashtirish tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘ni yetkazib berish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1997- yil 2-dekabrda «Davolash-profilaktika muassasalarini mablag‘ bilan taminlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Qarorda hukumat tamonidan ajratilgan mablag‘dan tashqari har xil hayriya jamiyatlari, chet el investitsiualari va tijorat muassasalarining sarmoyalaridan foydalanish ham ko‘zda tutilgan. Unda davolash uchun sarf bo‘ladigan mablag‘ning bir qismini bemorlarning o‘z zimmalariga yuklash ham hisobga olingan. Masalan, 1998-yil 1-yanvardan boshlab bemorlar shifoxonalarda davolanishlari davrida ovqatlanishlari pullik qilindi. Bulardan tashqari, sog‘liqni saqlash tizimini qo‘shimcha mablag‘ bilan ta‘minlashni ko‘zda tutib, har xil nodavlat jamg‘armalar ham ta‘sis etildi. Bu tadbirlar natijasida Respublikamizda sog‘liqni saqlash ishini isloh qilish va uni takomillashtirish yo‘lida bir muncha ijobiy natijalarga erishildi.

1998-yili O‘zbekiston shifokorlar uyushmasining tashabbusi bilan Ibn Sino xalqaro xayriya jamg‘armasi» tashkil etildi. Jamg‘arma Prezidentning farmoni bilan rasmiylashtirildi. Farmonda aytilishicha bu jamg‘arma Sog‘liqni Saqlash tizimidagi islohatlarni tezlashtirishga yordam berishi, tibbiy ijtimoiy hayriya tashki- lotlarini, nuroniylar uchun gerontologiya markazlarini ochish va Ibn Sino ta‘limoti hamda zamonaviy ilm-fan asosida Sharq tabobatini rivojlantirish, Abu Ali ibn Sino merosini chuqur o‘rganish ishlarini tezlashtirish, tibbiy maktablar va o‘quv yurtlari uchun yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqarishda ishtirok etish, buyuk olim asarlarini tartibga solish va ularni nashr etishga ko‘maklashish va Ibn Sino kutubxonasini ochish, Ibn Sinoning hayoti va tabiblik faoliyati haqida kitoblar chiqarish hamda Ibn Sino muzeyini barpo etish, Ibn Sinoning ilmiy merosiga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar, konferensiyalar tashkil qilish ishlari bilan shug‘ullanishi kerak. Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino mamlakatimizda ilmiy tibbiyotning shakllanishi va taraqqiy etishiga juda katta ulush qo‘shgan allomadir. Olimning nomi xalqimiz xotirasida abadiy saqlanadi. 2003-yil 26-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog‘liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish choralari to‘g‘risida»gi farmoni e‘lon qilindi. Farmonda ta‘kidlanishicha, mamlakatimizda

sog‘liqni saqlash tizimini yanada keng ko‘lamda va chuqurroq isloh qilish, yuqori xalqaro talablar darajasidagi ixtisoslashgan tibbiy markazlarni yaratish, ilg‘or tibbiy texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy va huquqiy shart-sharoitlarni ta‘minlash ko‘zda tutiladi. Jumladan, zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlangan maxsus klinikalar va tibbiy markazlarni tashkil etish rejalashtirilgan. Masalan, Respublikada ixtisoslashgan urologiya, jarrohlik, ko‘z mikrojarrohligi, ixtisoslashgan kardiologiya markazlari tashkil etiladi. Ushbu muassasalarga malakali shifokor mutaxassislar tayyorlanadi. Ular yuqori darajada rivojlangan xorijiy klinikalarda o‘z malakalarini oshiradilar. 2003-yil 1-fevralda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yig‘ilishida prezident farmonini amalga oshirish bo‘yicha bajarilgan ishlar muhokama qilindi. Yig‘ilishda Respublika Sog‘liqni Saqlash Vazirligi, Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasi, bir qator vazirliklar va mas‘ul tashkilotlarning vakillari qatnashdi. Majlisda muhim masalalardan biri sifatida dori vositalari va maxsus tibbiy asbob-uskunalar ishlab chiqarishni keng yo‘lga qo‘yish ta‘kidlandi.

Yuqorida tilga olingan barcha chora-tadbirlar mamlakatimizda tibbiyot ilmi va sog‘liqni saqlash faoliyatini rivojlantirish yo‘lida qo‘yilgan ilk qadamlar hisoblanadi. Kelgusida Respublikamizda sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish va rivojlantirish sohasida yana ko‘p ishlar amalga oshirilishi kerak.

Ushbu yillar davomida sog‘liqni saqlash tizimidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish, bemorlar huquqlarini himoya qilish va tibbiyot xodimlarining mas‘uliyatini kuchaytirishga qaratilgan qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilindi.

Shu sababli, har bir fuqaro, xususan, o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z jamiyati va xalqi bilan hamnafas bo‘lib yashashi uchun o‘z huquq va majburiyatlarini anglab yetishi, ularni to‘g‘ri tushunishi zarur. Bu jarayon huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy sharti hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun yangi qonunlar qabul qilinib, ular asosida amalga oshirilayotgan islohotlar davom ettirilmoqda. Aholi salomatligini saqlash va yaxshilash imkonini beradigan sifatli sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etish, sog‘lom avlod tarbiyasi yuzasidan shart-sharoit yaratish yuzasidan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini yoritib beradi. Mamlakatimizda ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishning samaradorligi, sifati va qulayligini oshirish ta‘minlandi, BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlarining asosiy parametrlariga erishildi. Mustaqillik yillarida sog‘liqni saqlash sohasida mamlakatimiz erishgan yutuqlarga xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baho berildi.

Xulosa va takliflar. O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilinishi natijasida bir qancha qaror, qonun va nizomlar qabul qilindi. Qabul qilingan qarorlar asosida soha faoliyatini huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi hamda moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Respublikamizning viloyat shahar va tumanlarida oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari binolari qayta ta‘mirlash ishlari nihoyasiga yetkazildi. Tizimdagi keng ko‘lamli islohotlar natijasida mavjud qishloq vrachlik punktlari o‘rnida qishloq oilaviy poliklinikalari tashkil etildi. Aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida

shifokorlarning ish vaqti belgilandi. Qishloq oilaviy poliklinikalarida umumiy amaliyot shifokori bilan birgalikda oltita tor soha mutahasislari pediatri, terapevt, ginekolog, xirurg, stomatolog, UTT vrachi faoliyati ham yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari binolarini ham qayta ta‘mirlash va imkoniyatlarini kengaytirish ishlari olib borildi. Bugungi kunda tez tibbiy yordam shahobchalarining poliklinikalarga ko‘chirilganligi ham tibbiy xizmatni uzluksiz, tunu kun davom ettirish imkonini yaratdi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, mazkur sohadagi islohatlar bugungi kunda o‘zining dolzarbligini ko‘rsatib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent. “O‘zbekiston. 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-son farmonining 1-ilovasida keltirilgan «2017-2021 -yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi». [Elektron resurs]. <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>. (Murojaat qilingan sana: 17.11.2017).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakatlar strategiyasi tugrisida» PF 4947-son Farmoni.
4. 2022-2026 -yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 29 avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning sog‘ligini saqlash tug‘risida»gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 29 avgustda “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” 2651-son Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxdamasining 1996 yil 21 maydagi "O‘zbekiston Respublikasi qishloqlari ijtimoiy infrastrukturasini 2000--yilgacha bo‘lgan davrda rivojlantirish dasturi to‘g‘risida"gi Qarori
8. O‘zbekiston Respulikasi Ilmiy texnikaviy va tibbitot hujjatlari Markaziy davlat arxivi . M-372-fond, 1-ro‘yxat , 82-yig‘ma jild, 11-varaq.
9. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo‘mitasi hisobotlari. 2013 yil. –B.43